

“TASDIQLAYMAN”
Yangi Namangan tumani Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish
bo‘limi boshlig‘i:



J. Ataxajayev

“5” yanvar 2024 yil

Yangi Namangan tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish
bo‘limi majlislar zalida o‘tkazilgan yig‘ilish

BAYONI № 2.

“5” yanvar 2024 yil

Yangi Namangan tumani

Yig‘ilish raisi:

J. Ataxajayev – tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

Yig‘ilishda qatnashdilar:

Bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosarlari, bo‘lim mutaxassislari, davlat mehnat huquq inspektori va mas‘ul hodimlari (ro‘yhat bo‘yicha)

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

Yangi Namangan tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi xodimlari va quyi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarini minimallashtirish to‘g‘risida.

(J. Ataxajayev, A. Nurmatov, M. Mamadjanov, B. Tursunov, S. Maxmudov, I. Ibroximov.....)

Yig‘ilishni bo‘lim boshlig‘i J. Ataxajayev ochib u o‘z so‘zida 2023 yilda bo‘lim va quyi tizimda korrupsiyaviy xolatlar sodir etilmagani va bunday xolat aniqlansa xuquqni muxofaza qilish organlar tomonidan qilmishiga yarasha jazo olishligi muqarrar ekanligiga to‘xtalib har qanday sodir etilgan jinoyat jazosiz qolmasligini takidlab. Yangi 2024 yildan bunday xolatlariga yo‘l qo‘ymalik choralari ko‘rish, bo‘lim xodimlari va quyi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaviy xolatlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirish maqsadida muntazam ravishda profilaktik tadbirlar o‘tkazish, bundan tashqari maxsus tayyorlangan bukletlar bo‘lim xodimlari va tizimdagi barcha tashkilotlarga tarqatish va fuqorolar ko‘rishiga qulay bo‘lgan joylarga osib qo‘yish,

tadbirlar o'tkazish tizimda korrupsiyaviy holatlarga murosasiz kurash olib borish to'g'risida so'z yuritdi.

Yuqoridagilardan holatlardan ko'rinib turibdiki bo'lim xodimlari o'rtasida profilaktik tadbirlar va targ'ibot tashviqot ishlarini kuchaytirish va har bir xodimlarni o'z vazifasiga vijdonan yondoshishi, korrupsion jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish, jazo muqarrarligi haqida tushintirish ishlarini ko'chaytirish xamda bo'lim xodimlari va quyi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlaridan **"Kafolat xat"**lari olish kerakligi bo'yicha gapirib o'tdi .

Yuqorida aytib o'tilgan so'zlar yuzasidan bo'lim boshlig'i o'rinbosarlari, mehnat xuquq inspektori va bo'lim mutaxassislarining fikr muloxazalari tinglandi.

Bo'lim boshlig'i J.Ataxajayev o'z so'zida bo'lim va uni quyi tizmlarida korrupsiyaviy xolatlarni oldini olish, targ'ibot ishlarini kuchaytirish, xodimlarni xuquqiy ongini oshirish, korrupsiyaviy xolatlarga moyilligi bo'lgan xodimlar bilan alohida ishlash kerakligi, fuqarolardan kelgan murojatlarni o'z vaqtida bajarishini nazoratga olish hamda ijro intizomiga qat'iy rioya etish to'g'risida ma'sullarni qat'iy ogoxlantirdi va xodimlarni ishga kelishi va ishdan qaytishi, tushlikga vaqtida chiqish va belgilangan vaqtda qaytish va boshqa ichki intizom tartiblariga bo'ysunishlarni alohida ta'kidlab, bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Kun tartibi bo'yicha masalani ko'rib chiqib, bildirilgan taklif va mulohazalarni hamda fikrlarni inobatga olib yigilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'lim xodimlari va quyi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l ko'ymaslik to'g'risida bo'lim boshlig'i J.Ataxajayevni qilgan maruzasi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bo'lim boshlig'ini birinchi o'rinbosari (A.Nurmatov), Tashkiliy nazorat va kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis (D.Buzrukova)larga

- bir kun muddatda tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi barcha xodimlari va quyi tizimidagi xodimlaridan korrupsiyaviy xolatlarga yo'l qo'maslik, korrupsiyaviy xolatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ijro intizomiga rioya qilish bo'lim boshlig'i nomiga **"Kafolat xat"**lari olish.

-yuqoridagi aytib o'tilgan so'zlarni xodimlar o'rtasida muhokama qilish, "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'yicha yillik ish reja va targ'ibot tadbirlari o'tkazish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi Tashkiliy nazorat va kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi (D.Buzrukova)ga ikki kun muddatda bo'lim va quyi tizimdagi xodimlaridan to'liq holda idora xodimlari va xokim yordamchilaridan **"Kafolat xat"**lari va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida **"Deklaratsiya"** to'lg'azish hamda yuqorida olingan ma'lumotlarni bosh boshqarma komplaens nazorat shu'basiga PDF qilib yetkazish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorini ijrosini nazorat qilishni bo'lim boshlig'ining birinchi o'rinbosari A. Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

**Tashkiliy Nazorat va
kadrlar bilan ishlash
bo'yicha bosh mutaxassis:**



D. Buzrukova